

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

MAXMUDOVA SABINA AVAZJONOVNA

**J. OLDRIJ ROMANLARIDA “BRITANIYA IMPERIYASI”
FREYMI MODELINING VOQELANISHI**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundariyasi**

**Оглавление диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Maxmudova Sabina Avazjonovna

J. Oldrij romanlarida “Britaniya Imperiyasi” freymi modelining voqelanishi 3

Махмудова Сабина Авазжоновна

Репрезентация модели фрейма «Империя Британия» в романах

Дж. Олдриджа 27

Maxmudova Sabina Avazjonovna

Representation of the frame model “Empire of Britain” in the novels

by J. Aldridge 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 57

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

MAXMUDOVA SABINA AVAZJONOVNA

**J. OLDRIJ ROMANLARIDA “BRITANIYA IMPERIYASI”
FREYMI MODELINING VOQELANISHI**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2023.2.PhD/Fil2115 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.nuu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Safarov Shaxriyor Safarovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Petruxina Natalya Mixaylovna**
filologiya fanlari doktori, professor

Arustamyan Yana Yurevna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «__» _____ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Farobiy ko'chasi, 400 uy. Tel.: (+99871) 246-08-62; (+99871) 227-10-59; faks (+99871) 246-65-21; e-mail: nauka@nuu.uz O'zbekiston Milliy universiteti, Xorijiy filologiya fakulteti, 311-xona).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4 uy. Tel: (+99871) 247-12-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «__» _____ da tarqatildi.
(2023-yil «__» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.G.Sheremetyeva

Ilmiy darajalar beruvchi raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

N.E.Abdullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

I.A.Siddikova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Zamonaviy jahon filologiya fani lingvistik ekspansionizm, antropotsentrizm, funksionalizm, hamda zamonaviy tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biri sifatida til ichki tuzilishining muayyan izohini izlashni nazarda tutadigan tushuntirishga intilish kabi belgilari bilan tavsiflanadi. Yuqorida zikr etilgan jarayonlarning barchasi an'anaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid hodisalarni o'rganishda yangicha yondashuvlarni qo'llash natijasidir. Zamonaviy filologiya fanida freymning reprezentativ modeliga, ayniqsa kognitiv adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan, qiziqish kuzatilmoqda va ushbu ko'p qirrali tadqiqot obyekti mustaqil fan sohalari va tadqiqot kontekstlarning keng doirasida asosiy muammoga aylandi. Kognitiv adabiyotshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari shakllanish bosqichida bo'lib, fanlararo tadqiqotlar uchun ochiqdir.

Hozirgi paytda dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, jumladan, kognitologiya, narratologiya, olamning lingvistik va badiiy manzarasi hamda madaniyatlararo muloqot doirasida keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Yozuvchi ijodiy faoliyatida freymni modellashtirish va tasvirlash muammolariga alohida e'tibor berilmoqda. Kognitiv-freym tahlil usuli badiiy matnni ijodkor sifatida muallif va uning badiiy tafakkuri nuqtai nazaridan chuqurroq o'rganish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Freym modelini o'rganish matnning lingvistik tuzilmalari va kognitiv tuzilmalar o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatni nazarda tutadi, bu ma'lum bir muallifning asarlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni real qayta ishlashga imkon beradi.

XXI asr O'zbekistoni barcha davlatlar bilan madaniy aloqalar uchun har tomonlama ochiq respublikadir. Xorijiy tillar va adabiyotni o'rganish xalqaro aloqalarni o'rnatish va kengaytirish, o'zbek madaniy modelini boshqa mamlakatlarga targ'ib qilish zaruriyatiga aylanib bormoqda. Adabiyot haqli ravishda barkamol, intellektual axloqli shaxsni ma'naviy-axloqiy shakllantirishning asosiy omillaridan biridir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev shunday ta'kidlaydi: "Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimizning intellektual va ma'naviy salohiyatini yuksaltirishda fan va ta'lim muhim ahamiyatga ega. Ilm-fan rivojlanmagan joyda jamiyatning barcha jabhalarda orqaga qaytishi, qoloqligi kuzatiladi... Zamonaviy bilimlarni egallashga, ma'rifatli bo'lishga, yuksak madaniyatga ega bo'lishga intilish barchamiz uchun hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak"¹. Shu bois, jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida, bir tomondan, xorijiy tadqiqotchilarni qiziqtirgan, ikkinchi tomondan esa, O'zbekiston uchun amaliy qiziqish uyg'otadigan masalalarga e'tibor qaratish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022 yil 28yanvardagi PF-60-son farmonlari "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi ot 25.01.2020 // <https://uza.uz/ru/posts/poslanie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziyeev-25-01-2020>

2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yil 5 fevraldagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining: 1. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innivatsiyon g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Badiiy makonda freymni modellashtirishning umumiy va xususiy muammolari bir qator olimlarning ishlari va dissertatsiyalarida ko‘rib chiqilgan².

Boshqa bir guruh tadqiqotchilar freymning tipologiyasi va tuzilishi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganishgan³; til birliklarini kognitiv-yo‘nalishda o‘rganish bilan bog‘liq masalalar o‘zbek tadqiqotchilarining asarlarida ham ko‘rib chiqilgan⁴.

² Минский М. Фрейм для представления знаний. – М.: Энергия, 1979. – 151 с.; Мирошниченко Н.С. Фрейм «Восстановление» и его репрезентация лексическими единицами в современном английском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Белгород, 2020. – 28 с.; Голованова Н.Г. Графическая модель фрейма «Вооруженное столкновение» и лексико-грамматические средства его представления в тексте // Филологические науки. Вопросы теории и практики. № 2 (32). 2014. Ч. 1. – С. 56–59; Демьянков В.З. Фреймовая семантика // Краткий словарь когнитивных терминов / под общ. ред. Е.С. Кубряковой. – М.: Филологический факультет МГУ им. М.В. Ломоносова, 1996. – С. 189–191; Куприева И.А. Особенности репрезентации фрейма «Внимание» глагольно-именным словосочетанием «Pay attention» // Слово, высказывание, текст в когнитивном, прагматическом и культурологическом аспектах. Сб. ст. участников IV Международной научной конференции 25–26 апреля. Т. 1. Челябинск, 2008. – С. 150–153; Никонова Ж.В. Фреймовый анализ речевых актов (на материале современного немецкого языка): Автореф. дис. ... докт. филол. наук. – Нижний Новгород, 2009. – 41 с.; Плешакова А.В. Исследование фрейма «Происшествие» на материале русских и английских текстов жанра «информационное сообщение»: Диссертация ... канд. филол. наук. – Саратов, 1998. – 28 с.; Cienki A. Frames, idealised cognitive models and domains // The Oxford handbook of cognitive linguistics. D. Geeraerts, H. Cuycens (eds.). NY: Oxford University Press, 2007. – P. 170–187.

³ Жаботинская С. А. Концептуальный анализ языка: фреймовые сети // Вестник Одесского нац. Ун-та. – Одесса Астропринт, 2004, № 9. – С. 81–92; Жарина О. А. «Концепт» vs «фрейм»: проблема дефиниции и соотношения понятий в современной когнитивной лингвистике // Балтийский гуманитарный журнал, 2017. Т. 6, № 3 (20). – С. 43–46; Корниенко Е.Р. Фреймовая репрезентация художественного дискурса Н.И. Новикова // Современная наука: актуальные проблемы теории и практики. Филология. Серия гуманитарные науки. № 6. 2020. – С. 146–149; Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка, их личностная и национальная специфика: Диссертация ... докт. филол. наук. – Воронеж, 1997. – 330 с.; Тарасова И.А. Фреймовый анализ в исследовании идиостилей // Филологические науки, 2004. № 4. – С. 42–49; Гофман И. Анализ фреймов. Эссе об организации повседневности. – М: Институт социологии РАН–2003. – 752 с.; Fillmore Ch. J. Frame semantics // Linguistics in the morning calm: Selected papers from the SICOL–1981. Seoul: Hanship, 1982. – P. 111–137; Рязанцева Д.Б. Фреймово-слотовый анализ текста анекдота // Слово, высказывание, текст в когнитивном, прагматическом и культурологическом аспектах. Сб. ст. участников IV Международной научной конференции 25–26 апреля 2008. Челябинск. Т. 1. – Челябинск, 2008. – С. 218–222.

⁴ Сафаров Ш.С. Семантика. – Т.: Узбекистон миллий энциклопедияси, 2013. – 344 б.; Сафаров Ш.С. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор нашриёти, 2006. – 93 б.; Галиева М.Р. Вербализация концептосферы Word / Сўз / Слово в английской, узбекской и русской языковых картинах мирах. Дисс. ... канд. филол. наук. Ташкент, 2010; Джусупов Н. М. Когнитивно-стилистические основы выдвижения в англоязычном художественном тексте. Дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 2020. – 330 с.; Ашурова Д.У., Галиева М.Р. Cognitive Linguistics [Когнитив лингвистика]. Ўқув қўлланма. – Тошкент: 2018. – 107 р.; Ашурова Д.У. Новые тенденции в развитии стилистики // Til va nutq system-sath talqinida: материалы науч.-теор. конф. Самарканд: СамГИИЯ,

Kognitiv adabiyotshunoslikning nazariy asosi shakllanish bosqichida bo‘lganligi sababli hozirgi vaqtda freym modelini badiiy makonda tasvirlash muammosi juda dolzarb va yetarlicha o‘rganilmagan. Freym modelining badiiy makonda ifodalanishi aniq individual-mualliflik, milliy-semantik va aksiologik xususiyatga ega bo‘lib, unda muallif modalligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu sababli, ushbu tadqiqotning nazariy va uslubiy bazasini shakllantirish ancha murakkab va mashaqqatli vazifa.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Matn shakllantirishning pragmatik va lingvokognitiv jihatlari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi J. Oldrijning "sharq" romanlari misolida badiiy makonda freym modelini aks ettirish yo‘llarini ko‘rib chiqish orqali freym tuzilmasi va uning slotlari hamda "begona/o‘ziniki" doirasida qahramonlarning kontseptual qarama-qarshiligi mavjudligi motivatsiyasini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kognitiv adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan badiiy freymni tasvirlash va uni taqdim etishning asosiy parametrlarini aniqlash;

freym modelini ifodalash jarayonida ishtirok etuvchi slotlar va kontseptlar tizimini belgilash;

ma‘lum muallifning badiiy voqeligini (manzarasini) idrok etish uchun freym modeli tarkibiy qismlarining bog‘lanish qonuniyatlarini, ularning o‘zaro ta‘siri va muqoyasa qilinishini tavsiflash;

J. Oldrijning “sharq” romanlaridan har birining tuzilishi sifatida freym modeli va uning slotlarini tahlil qilish;

“o‘ziniki/begona” konseptual binar qarama-qarshiligi doirasidagi transformatsiyalarni tizimlashtirish va kontseptual qarama-qarshilikning ko‘p funksiyaliligini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida “Imperiya/Britaniya” freym modelining tuzilishi va J. Oldrijning “sharq” romanlari badiiy makonida uning voqelanishi tanlangan.

Tadqiqotning predmetini muallif tomonidan freym modellarida kodlangan va badiiy matnni sharhlash jarayonida qabul qiluvchilar ongida aks ettadigan ma‘lumotlar hamda “o‘ziniki / begona” juftligi qarama-qarshiligining o‘rganilayotgan romanlarning turli jihatlari va vaziyatlaridagi transformatsiyasi tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Asosiy tadqiqot usuli sifatida kognitiv freym tahlili tanlandi. Shuningdek, dissertatsiya ishida kognitiv-kontseptual metod, kognitiv

2005; Ашурова Д.У. Стилистика в свете когнитивной теории языка // “Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмий-методик электрон журнал, № 2 (21), 2018; Ашурова Д.У. Развитие когнитивной лингвистики в Узбекистане // Хорижий филология, № 3, 2016; Арустамян Я.Ю. Когнитивно-прагматические основания художественного перевода. Дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 2022; Нормуродова Н.З. Вербальная экспликация антропоцентризма в англоязычном художественном дискурсе. Дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 2020; Абдуазизов А.А. О соотношении когнитивной семантики и стилистики // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида. Илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2011.

modellashtirish usuli, tavsifiy metod, kontekstual tahlil usuli kabi tilshunoslik va adabiyotshunoslikning umumiy, ham xususiy usullaridan foydalanilgan..

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

freymni kognitiv adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish zarurati asoslangan, bu esa badiiy asarni kommunikativ tizim sifatida ko'rsatish uchun yangi imkoniyatlar taqdim etgan;

“Imperiya/Britaniya” freym modelining barcha tarkibiy elementlarini mantiqiy asoslash usuli va ularning J. Oldrij romanlari misolidagi kommunikativ ahamiyati tafsiflash usuli ishlab chiqilgan;

“Imperiya/Britaniya” freymi representativ funksiyasining shartlari, uning slotlari (neft, siyosat), “ingliz” va “toj xizmatkorlari” personaj kontseptlari “o'ziniki/begona” ikkilik oppozitsiyasidagi ifodasi, shuningdek, milliy “makon” va qahramon modalligiga to'g'ridan-to'g'ri mutanosib ravishda “o'ziniki/begona” konseptual qarama-qarshiligiga mustaqil va segment sifatida kiradigan “Englishman” badiiy kontseptning ko'p qirraliligi va ko'p funksiyaliligi isbotlangan;

“Imperiya/Britaniya” freymning tuzilishi va uning slotlari asarlarda muhim individual-muallif kotseptlari sifatidagi jihatlari hamda “Imperiya/Britaniya” freymi emergent (paydo bo'lish) qonuniga ko'ra tashkiliy tamoyil sifatida ifodalanganligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

ushbu dissertatsiya tadqiqoti badiiy nasriy asarni san'at asari sifatida, idrok obyektining estetik komponentini hisobga olgan holda, obyektiv idrok etish mexanizmlarni yaratishni nazarda tutadi.

Xorijiy matn ustida analitik va tahliliy ishlar oliy o'quv yurti ta'lim amaliyoti uchun juda muhim, chunki chet tillarini o'qitishga qaratilgan oliy o'quv yurtlarida badiiy matn bilan ishlashga ko'p miqdorda vaqt ajratiladi. Ishlab chiqilgan nazariy xulosalar va mexanizmlardan ona tilidagi badiiy matnlarga nisbatan ham foydalanish mumkin. Dissertatsiya materiallari analitik o'qish, 20-asr ingliz adabiyoti tarixi, badiiy matnni sharhlash, lingvistik stilistika va matnning filologik tahlili bo'yicha darslarda foydali bo'lishi mumkin.

Dissertatsiya tadqiqoti natijalarining ishonchliligi filologik bilimlarning kognitiv adabiyotshunoslik va tilshunoslik, lingvokulturologiya, psixolingvistika, matn lingvistikasi va lingvopoetika sohalarida to'plangan nazariy ma'lumotlarni hisobga olgan holda aniq faktik materialni tahlil qilish bilan ta'minlanadi. Nazariy va amaliy natijalar nashr etilgan ishlarda o'z aksini topgan. Olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishning ilmiy ahamiyati tadqiqot natijalarining kognitiv adabiyotshunoslikning mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida rivojlanishiga hissa qo'shishi bilan belgilanadi. Freym modelini tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan metodika universal tabiyatga ega bo'lib, undan badiiy freymnlarni o'rganish jarayonida ham foydalanish mumkin.

Ishda qabul qilingan fanlararo yondashuv badiiy asarni eng keng kontekstda o'rganishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradi. Ishda keltirilgan tadqiqot materiallari va xulosalar tahliliy va tanqidiy o'qish

bo'yicha mutaxassislar tayyorlashda alohida ahamiyatga ega. Ulardan magistrlik dissertatsiyalarini yozishda, darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratishda foydalanish mumkin. Shuningdek, ular ingliz adabiyoti fanidan nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun mo'ljallangan materiallarni boyitishga hissa qo'shadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Badiiy makonni modellashtirish jarayonida freym tahlilining ishlab chiqilgan tamoyillari va uni talqin qilish usullari hamda freym modeli elementlarini tahlil qilish va ularning badiiy matn makonida verballashish usullarini tasvirlash natijasida:

1-yangiligga oid xulosalardan Tempus Project 544161- TEMPUS-1-2013-1-UK-TEMPUS-JPCR Aston University DeTEL "Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masters Programmes" innovatsion tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023 yil 24 yanvardagi 125/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada, badiiy freymni anglashda yangi kognitiv yondashuv tilshunoslik, tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik fanlari bo'yicha ham talabalar, ham o'qituvchilarning bilim va malakalarini oshirishga hissa qo'shgan;

2-yangiligga oid xulosalardan I-204-4-5 "Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" innovatsion loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023 yil 24 yanvardagi 123/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'qituvchilarning lingvistik va kommunikativ kompetentsiyalari oshishiga yordam bergan;

3-yangiligga oid xulosalardan Erasmus + 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: "O'zbekistonda oliy ta'lim jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" grant loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023 yil 24 yanvardagi 124/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada, badiiy matnni (kontseptlar, subfreymlar va slotlar) tuzishda freym tahlil qilish jarayonini chuqurlashtirishga imkon bergan, bu badiiy matnni o'rganish uchun freym tahlilidan foydalanish mexanizmlarini rivojlantirishga hissa qo'shgan;

4-yangiligga oid xulosalardan OT-Atech-2018-519 "Kompyuter imitatsiya modellari asosida virtual resurslarning veb-ilovalari uchun dasturiy ta'minot yaratish" loyihasida foydalanilgan kompyuter matematikasining yangi paradigmasi sifatida axborot noaniqligi sharoitida kompyuter imitatsiyasi modellarini ishlab chiqishga yordam bergan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023 yil 25-yanvardagi 146/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada, bu badiiy matn sohasida kompyuter modellashtirish texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etishning asosiy tamoyillari va qoidalarini aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy konferensiya va seminarlarda, jumladan 5 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish

uchun tavsiya etilgan nashrlarda 10 ta maqola, jumladan 4 ta respublika va 6 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish va asosiy qism, 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 149 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti va materiali aniqlangan; tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari taqdim etilgan; olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilishi, aprobatsiyasi, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining **“Kognitiv adabiyotshunoslik muammolari va badiiy matnning tuzilishi”** deb nomlangan birinchi bobida kognitiv adabiyotshunoslikning nazariy muammolari va istiqbollari, ushbu sohaning “yangi taraqqiyot bosqichida”gi muammolari, badiiy matnning strukturaliligi va arxitektonikasining xususiyatlari hamda J. Oldrij romanlari materiali bo'yicha “Imperiya” freymi modelining tuzilish xususiyatlari haqida so'z boradi.

Adabiyotshunoslik eng qadimgi filologiya fanlaridan biridir. Eramizdan avvalgi III-asrda yozilgan Aristotelning “Poetika” asariga ishora qilishning o'zi kifoya, unda zamonaviy tadqiqotning deyarli barcha masalalari: tur va janrlar, taqlid, yagonalik va umumiylik dialektikasi, uslub, metaforalar haqida fikrlar bayon etilgan. Bu Aristotelning ilmiy ta'riflari, xulosalari uchun qanchalik katta va qiziqarli faktik materialga ega ekanligini anglatadi. Bu bilimning namoyon bo'lishi emasmi? Yozuvchilar va shoirlar qadim zamonlardan beri inson hayotiga hamroh bo'lib, uni o'zlarining intellektual va estetik tadqiqotlari obyektiga aylantirganlar.

Aynan yozuvchi “o'z asarida olamning funksional badiiy manzarasini” yaratuvchi yagona Lisoniy Shaxsdir. “Kognitsiya” atamasini keng ma'noda ta'riflovchi E.S. Kubryakova, aslida, yozuvchining ijodiy jarayonini batafsil talqin qiladi: “Kognitsiya insondagi aqliy, intellektual qobiliyatlarning namoyon bo'lishidir va o'z-o'zini anglash, o'zini va atrofidagi muhitni baholash, olamning maxsus manzarasini yaratishni o'z ichiga oladi. ...”⁵.

Yozuvchining badiiy ijodi zamonaviy kognitivistlar tomonidan o'ziga xos tafakkur turining eng yuqori ko'rinishi sifatida juda oqilona izohlanmoqda: “Shu ma'noda badiiy ijod ham kognitiv muhitga bir butun qilib birlashtirilgan olam bilan o'zaro bog'lanishning bir qismidir, u ham bilimning bir qismidir”⁶. Badiiy tafakkur g'oyani tushunib etishdan qahramonni aniqlash, matn ustida batafsil stilistik

⁵Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. – М.: Филологический факультет МГУ им. М.В. Ломоносова, 1997. – С. 156.

⁶ Маслова Ж.Н. Творческое языковое сознание. – Тамбов: Издательский дом ТГУ им. Р.Г. Державина, 2015. – С. 157.

ishlashgacha bo‘lgan ko‘p bosqichlarni, fanda kontseptuallashtirish va toifalash deb ataladigan barcha tushunchalarni o‘z ichiga olgan samarali kognitiv uzoq davom etadigan jarayondir.

Badiiy matn tadqiqot obyekti sifatida kognitiv adabiyotshunoslik oqimida ko‘rib chiqish doirasida turli nuqtai nazarlardan talqin qilinishi mumkin. Tadqiqot istiqbolini hisobga olgan holda “badiiy matn”ning ko‘plab ta’riflari ma’lum: “Ammo matn... faqat 19–20-asrlarda, tuzilma sifatida ko‘rib chiqila boshlagandagina, alohida qiziqish obyektiga aylanadi”⁷.

Shunisi e’tiborga loyiqli, rus strukturalistlari (V.B. Shklovskiy, R. Yakobson, B. Eyxenbaum, Yu.N. Tynyanov va boshqalar) aynan shu nuqtai nazarlardan matnni ko‘rib chiqishga kirishganlar. Aytish mumkinki, badiiy matn talqiniga "kognitiv" yondashuv tamoyillari XX-asrning 1920-yillarida aynan shu filologlar tomonidan belgilangan, birinchi navbatda V.B. Shklovskiy o‘z vaqtida zamonaviy fanning barcha atamalaridan unumli foydalangan.

Ta’kidlash joizki, “Kognitiv atamalarning ixcham lug‘ati”dagi atamalarni tahlil qilish orqali ularning kognitiv adabiyotshunoslikda ko‘p funksiyaliligini va qo‘llanish imkoniyatlarini tushunish mumkin. Masalan, “kognitiv tamoyillar”ni “matndagi axborotni tashkil etishda kognitiv cheklovlar” deb talqin qilish mumkin. Badiiy matnni tahlil qilish nuqtai nazaridan inferentsiya (inference) uslublari, bizningcha, J. Oldrij romanlarida “matn chegarasi”dan tashqarida yangi ma’lumotlar shakllanganda uch o‘lchovli vaziyatlar yaratishning o‘sha kognitiv tamoyillaridir. Bundan tashqari, adabiyotshunoslikka oid tahlil qilishning eng muhim vositasi bo‘lgan matnni talqin qilish "Kognitiv terminlarning qisqacha lug‘ati"da "... kognitiv jarayon va bir vaqtning o‘zida nutqiy yoki nonutqiy harakatlarining ma’nosini o‘rnatish natijasi" sifatida ta’riflangan⁸. Atamalarning bunday “chaparasta” qo‘llanilishi badiiy asarni amaliy tahlil qilish jarayonida, taxminan kontsept singari alohida ma’noga ega bo‘ladi, masalan, “muhabbat” tilshunos nazarida yoki Sa’diy yoki Bayron, Petrark yoki Pushkinning lirik she’rlari kontekstida. Badiiy kontsept, go‘ya, ko‘p miqdordagi qatlamlar va belgilar, birinchi navbatda, etnik komponentlar bilan "qoplanib boradi".

Badiiy matnni ma’lum nuqtai nazardan talqin qilish kognitiv adabiyotshunoslikning vazifasi deyish mumkin. Masalan, “matnning umumlashgan semantik tuzilishi” sifatidagi kontseptlar bilan ishlash muayyan muallifning ijodiy va mafkuraviy afzalliklarini aniqlashga olib keladi.

Yuqorida aytilganlarning barchasi bizning tadqiqotimizning nazariy asosi bo‘lib, J. Oldrijning “sharq” romanlarini freym-kontseptual tahlil qilish qonuniyatini belgilaydi. Kognitiv yondashuv nuqtai nazaridan biz 25 yil davomida yaratilgan romanlarni ijodiy idroq jarayoni (siyosat, makon, mamlakatlar, urf-odatlar, yangi siyosiy arboblar va boshqalar haqidagi ma’lumotlar) sifatida va murakkab konseptual tizim sifatida tasavvur etgan holda ko‘rib chiqamiz.

⁷ Митина С.И. Текст как смыслополагание // Слово, высказывание, текст в когнитивном, прагматическом и культурологическом аспектах. Сб. ст. участников IV Международной научной конференции 25–26 апреля 2008. – Челябинск, 2008. – С. 447–450.

⁸ Демьянков В. З. Фреймовая семантика // Краткий словарь когнитивных терминов / под общ. ред. Е.С. Кубряковой. – М.: Филологический факультет МГУ им. М.В. Ломоносова, 1996. – С. 189–191.

J. Oldrij romanlari arxitektonikasining o'ziga xosligi ularda taqdim etilgan bilimlarni ifodalashning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi hamda tuzilmalar (freym va uning tarkibiy qismlari)ning mavjudligini va ularning bir-biri bilan qanday munosabatda bo'lishini mantiqan tasdiqlaydi.

Ko'rib turganingizdek, kognitiv fan o'z arsenalida juda ko'p "provokatsion" lahzalarga egaki, ular nazariyani (adabiyotshunoslikni) oldinda turgan badiiy ijod jarayonlari bilan to'qnashtirib turadi. 1949 yilda J. Oldrij tomonidan yozilgan "Diplomat" romani o'zining "tashkiliy" mazmuniga Britaniya freym tuzilishini kiritadi; personajlar tizimi "o'ziniki/begona" kontseptual qarama-qarshiligi bilan taqdim etilgan. Bularning barchasi muallifning g'oyasini buzmaydi, mavzuni ochib beradi, arxitektonika va kompozitsiyani belgilaydi.

Badiiy matndagi individual-muallif kontseptlari asosan yozuvchi hayotining hozirgi paytdagi kognitiv faoliyatini, uning qiziqishlarini tushuntirib, tavsiflaganligi sababli, aynan shu tuzilish (freym bilan birga) bo'yicha J. Oldrijning 1949–1974 yillardagi ijodiy yo'lini asliday qilib tiklash mumkin. Demak, kognitiv yondashuv adabiyotshunoslikka oid tahlilga ilmiy yondashuvni belgilashda subyektiv erkinlik bo'lmasdan, matn bilan uzoq dialogga kirishish, matnning o'zi (mohiyatiga ko'ra) mavzuni aytib turishi uchun muallif niyatining singib ketish jarayonidir.

Yozuvchilik jarayoni chuqur kognitiv jarayon, ijodiy fikrlash ishi, toifalash va kontseptuallashtirishdir. Asardagi "bog'lanishlar"ning ahamiyatini va yozuvchi ijodining bosqichlarini baholash uchun aysbergning uchidek asarlarning belgisi sarlavhalariga e'tibor qaratishning o'zi kifoya.

Yozuvchining tarjimai holi va uning davri 1949-yildagi "Diplomat"dan boshlab romanlarining badiiy olamida yangicha ma'no kasb etganiga J. Oldrij ijodi yorqin misoldir. J. Oldrij Yevropa frontlarining eng "qaynoq nuqtalarida" harbiy jurnalist bo'lgan, 40–50-yillarda yozuvchi uzoq vaqt Yaqin Sharqda yashagan, Sharq mamlakatlari va milliy ozodlik harakati yetakchilarini yaxshi bilgan. Sharq mavzusi, cho'l makoni va madaniyati, Ozarbayjon Kurdistoni muammolari shunchaki badiiy ramka emas, balki uning romanlarining to'laqonli qismlaridir. Ushbu dissertatsiya ishida tahlil materialini J. Oldrijning to'rtta romani tashkil qilgan. XX-asrning 1940–1960-yillardagi siyosiy voqelik dunyoning "do'stlar va dushmanlar"ga, Sharq/G'arbga, murosasiz ikkita siyosiy tizimga bo'linishini oldindan belgilab beradi. Sharq davlatlarining yosh milliy yetakchilari, Imperiyaning dushmaniga aylanib, Angliyaning tashqi ambitsiyalariga qarshi kurashish istagini bildirdilar.

J. Oldrij siyosiy romanlarni yaratadi, ularda qarama-qarshilikning keskinligi haqiqiy tarixiy shaxslar bilan mustahkamlangan. "Cho'l ufqlari qahramonlari" romanidagi neft quvuri bilan bog'liq asosiy ziddiyatni anglash uchun o'z mamlakatida neft qazib olish bo'yicha vazifani Amerikaning "Aramko" kompaniyasiga topshirgan qirol Ibn Saud siyosini eslatib o'tishning o'zi etarli.

J. Oldrijning "Sharq" romanlari realistlik, keskin siyosiy xarakterga ega bo'lib, bu ularning shubhasiz badiiyligini pasaytirmaydi. XX-asrning 1940–50-yillarida Yaqin Sharqdagi siyosiy voqelik shu qadar tez o'zgaradi, koloniyalar va dominionlar jahon xaritasidan olib tashlanadi, katta siyosatga yangi siyosiy yetakchilar olib kiriladiki, bularning barchasi yozuvchining romanlarida badiiy g'aydalantiriladi.

B. Gasparovning adabiy matni J. Oldrijga qahramonlar (milliy istiqlol uchun kurashchilar, o'zining chegara identifikatsiyasiga ega bo'lgan "g'alati" ingliz, Imperiya malaylari) obrazlarini yaratish imkonini beruvchi "uzluksiz harakatlanuvchi inson tajribasi zarrasi" deb hisoblashi bejiz emas.

Zamonaviy ilmiy paradigma badiiy matnning "dinamik tizim", "yopiq, o'zini o'zi ta'minlaydigan, sinxron tarzda tashkil etilgan tizim"⁹ sifatida ta'riflarini beradi.

"Tuzilma" va "muallif ijodining individual tizimi" so'zlaridan foydalanishni, shu jumladan, arxitektonika sohasida ham, romanlar kompozitsiyasida ham, nazarda tutadigan "uyushgan tizim" so'zlari biz uchun muhimdir: "Bilimlarni ifodalovchi, kontseptual tizimni tashkil etuvchi tuzilmalar atrofdagi voqelikni idrok etish natijasidir"¹⁰. Freym kontseptual tuzilmaning bir turi bo'lganligi sababli, bu holat J. Oldrijning "sharq" romanlarini tahlil qilish Imperiya/Britaniya freymining strukturasi topish, uning slotlari, subyektlarini matnlardagi muhim individual muallif kontseptlari sifatida belgilashni isbotlaydi, deb ta'kidlash imkonini beradi. "Tizim va tuzilma" romanlarda "siyosat va neft" slotlarining rivojiga turtki beruvchi, emerjentlik qonuniga ko'ra tashkiliy asos sifatida Imperiya-Britaniya freymining rivojlanishini ham nazarda tutadi.

J. Oldrij romanlaridagi "vaziyatlar" kompozitsiyasi muallif niyatini ochib berishda muhim tuzilma shakllantiruvchi "zanjir"dir.

"Cho'l ufqlari qahramonlari" romanida Gordon "Cho'lda" turli vaziyatlarda g'oyaviy jihatdan hukmronlik qiladi, u – yakkayu-yagona, u – Syimo, uning ahamiyatini general Martin ham, qabilalarning barcha shayxlari ham tan oladilar. Yozuvchi qahramonning vatandagi ruhiy inqirozini ko'rsatishi kerak. Gordonning Angliyadagi psixologik noqulayligi uning Tessga iqror bo'lishida ifodalangan, o'zini his qilishi uning nafsoniyati uchun kamsitishdir: «Completely destroyed. It was as if my ridge had been broken»¹¹.

Freym modeli turli kognitiv fanlar vakillari tomonidan faol foydalanilmoqda. Tilshunoslar freym modellashtirish haqida "kontseptlarni modellashtirish va tahlil qilish usullaridan biri sifatida" yozadilar (A.P. Prikhodko). Freym semantikasi nazariyasi bugungi kunda semantik nazariyalar orasida mashhur bo'lib, bu birinchi navbatda uning «fanlararo» xarakteri bilan izohlanadi. Lingvokulturologlar va lingvopsixologlar uchun "freym - kognitiv tuzilma" tizimlashtirilishi freymning asosiy qimmatli xususiyati va funktsiyasi bo'lib qolmoqda.

J. Oldrijning "Sharq" romanlarini kognitiv-freym tahlil qilish Britaniya freymining tuzilishini, uning slotlarini (neft va siyosat), subyektlarni ajratib ko'rsatishga va "begona/o'ziniki" doirasida qahramonlar kontseptual qarama-qarshiligining mavjudligini motivlashtirishga imkon beradi. Biz J. Oldrijning "sharq" romanlarida "Imperiya/Britaniya" freymi modelini yaratish uchun *freym – bilim strukturasi* yoki *freym – bilimni taqdim etish strukturasi* mazmunidagi ikkala fikrni ham samarali deb hisoblaymiz. Imperiya freymi slotlar bilan

⁹ Лотман Ю.М. Внутри мыслящих миров. Человек – текст – семиосфера – история. – М.: Язык русской культуры, 1999 – С. 247.

¹⁰ Джусупов Н.М. Когнитивная стилистика: современное состояние и актуальные вопросы исследования // Вопросы когнитивной лингвистики, № 3(028), 2011. – С. 65–76.

¹¹ Aldridge J. Heroes of the Desert Horizons. – М.: Ed. Foreign literature, 1958. – P. 94.

mustahkamlangan, badiiy vazifalar va J. Oldrijning "sharq" romanlari mantig'i bilan shartlangan kognitiv strukturaga aylanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Britaniya/Imperiya freymi va uning slotlarining J. Oldrijning "Sharq romanlari"da taqdim etilishi**" deb nomlangan. Ushbu bobning birinchi qismi J. Oldrij romanlarida "inglizlar"ni tavsiflash uchun "joy"ni identifikatsiyalash ma'nosining xususiyatlarini tasvirlashga bag'ishlangan. Shunisi e'tiborga loyiqki, o'zaro bog'langan gumanitar soha mutaxassislari ishonchli material sifatida badiiy matnlarga murojaat qilishadi, chunki ijodiy jarayon obrazlarning yanada aniq va batafsil tekshirilgan psixologik tadqiqotlarini taqoza qiladi: "Ko'rgazmaliroq bo'lishi uchun "o'zlikni anglash inqirozi"ni badiiy asarlar va buyuk odamlarning asl ishlari orqali o'rganish mumkin, ular faqat o'z zamondoshlariga yechimning yangi modelini taklif qilgan holda, uni o'zlari uchun hal qila olganlar"¹².

J. Oldrij ijtimoiy romanning o'ziga xos turini yaratadi, unda siyosiy inqiroz kontekstida qahramon o'zliche inqirozi tasvirlanadi. Uning "sharq" romanlari qahramoni sharoit ta'sirida ildizidan uzilib qolgan va so'nggi yillarda o'ziga xos makon topib, o'zini anglab yetgan, akkulturasiya inqiroziga duchor bo'lmagan "ingliz odami"ning alohida bir turidir.

J. Oldrij nasl-nasabi bo'yicha inglizlarning Sharqda yashash va ishlash, sharqona qadriyatlarni qabul qilish jarayonida tobora sharq odamlariga (mentaliteti va siyosiy qarashlari bo'yicha) qanday aylanib borishini tushuntiradi. Ta'kidlash joizki, J. Oldrijning har bir qahramoni uzoq vaqt davomida sharq mamlakatiga kirib, "begona"lar orasida "o'ziniki", "do'stlar" orasida "o'zga" bo'lib qolganini his qilmaydi. Yozuvchi ularni begonalashtirish majmuasidan (tilni, marosimlarni bilish, aksiologik qadriyatlarni qabul qilish) mahrum qilib, ularni "o'ziniki qiladi".

1. Mak-Gregor («The Diplomat» and «Mountains and Weapons») Eronda tug'ilib o'sgan va butun umri davomida Eron milliy neft kompaniyasida ishlagan. Mak-Gregorning o'zini identifikatsiyalashi sharq odami, deyarli eronlik tarzida ta'kidlanadi: «I had never been to England until he was seventeen, and he had njoyed no preliminary life as an Englishman»¹³. Boz ustiga, Londonda o'qiyotganda u o'zini "begona"dek his qiladi: «The Royal College of Science he had been a foreigner». Eronga qaytib, o'z uyidagi muhitni his qilgan Mak-Gregor shunday tan oladi: «I probably say that because in Iran I am a better Iranian than I am no an Englishman»¹⁴.

2. Gordon ("Cho'l ufqlari qahramonlari") – professional arabshunos: «It was at the London School of Oriental Studies, where he came straight from Cambridge»¹⁵. U Britaniyaning qabilalarning ozodligi uchun olib borayotgan siyosatiga qarshi chiqib, 8 yil davomida Shayx Hakimga xizmat qiladi. Shunisi e'tiborga loyiqki, arablarning o'zlari Gordonning shaxsiy xizmatlarini ta'kidlab, uni "o'zlariniki" deb

¹² Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. – М.: Прогресс, 1996. – 340 с.

¹³ Aldridge J. Diplomat. – М.: Ed. Foreign literature, 1952. – P. 56.

¹⁴ Aldridge J. Diplomat. – М.: Ed. Foreign literature, 1952. – P. 17.

¹⁵ Aldridge J. Heroes of the Desert Horizons. – М.: Ed. Foreign literature, 1958. – P. 42.

bilishadi. Masalan, inglizparast Posho Azmi shunday deydi: «Gordon is English, but he has a lot of savagery of an Arab»¹⁶.

3. Kapitan Skott ("Men uning o'lishini xohlamayman") ko'p yillar davomida Misrda xalqaro jamoada ishlagan. U quvur o'tkazish bo'yicha mutaxassis: «Before the war, I explored the route for the oil pipeline from the fields in Gimsa to Cairo...»¹⁷. Romanda uning Qizil dengiz yaqinidagi cho'l va tog'larni kesib o'tgan yagona shaxs ekanligi ta'kidlanadi.

Shunday qilib, bu qahramonlarning tarjimai holidagi faktlari ham "chegara" o'zini identifikatsiyalashning paydo bo'lishiga asosiy sababdir. Psixologlar etnik identifikatsiyada ikkita asosiy affektiv va kognitiv komponentni ajratib ko'rsatishadi. Affektiv komponent "etnik jamoaga mansublikning emotsional aspektidir". J. Oldrijning yuqorida tilga olingan barcha qahramonlari uchun Britaniya Imperiyasining siyosiy faoliyati o'z vatanlaridan voz kechishga sabab bo'ladi. Qayd etilgan qahramonlarning barchasi inglizlardir, lekin ular ruhiy va aqliy jihatdan boshqa odamlar guruhiga tegishli. Yozuvchi qahramonlarning o'z-o'zini anglashida "kichik vatani"ning aksiologik qadriyatlari qanday hukmronlik qilishini, kognitiv komponentning – boshqa xalqlarning qadriyatlari, hayot normalari, marosimlari haqida etnik bilimdonlikning "ortiqqligi" va ularni qulay qabul qilish qanday paydo bo'lishini ta'kidlaydi.

O'zini identifikatsiyalah inqirozining eng ishonchli sababi sifatida J. Oldrij Sharqda yangi siyosiy qatlamning ozodlik kurashi qahramon tomonidan tushunilishini, u tomondan yuksak maqsadlarning qabul qilinishini va, shu bilan birga, Imperiyaning jinoiy siyosatiga qarshi chiqishni keltiradi. "Sharq" identikligini qabul qilish foydasiga muhim dalil – bu "an'anaviy jamiyatda" identiklik jamiyat hayotining cho'l aholisi yoki kurdlar amal qiladigan ideal me'yoriy andozalarga muvofiqligi bilan ta'minlanishini tushunishdir. "Cho'l ufqlari qahramonlari" romanida Gordon arab qabilalarining hayotidagi sharaf kodeksiga itoat qiladi.

J. Oldrijning "sharq" romanlari arxitektonikasi "o'ziniki"ning barcha atributlari bilan yangi makonda qahramon hayotining to'liq manzarasini yaratishga hissa qo'shadi. "Hudud va landshaft" xususiyatlari qonuni J. Oldrijga o'ziga xos identifikatsiyaga ega bo'lgan personajlarni yaratishni asoslashga imkon beradi.

Ikkinchi bo'lim J. Oldrijning "sharq" romanlaridagi "o'ziniki/begona" konseptual maydonidagi "ingliz" segmentining ma'nosini o'rganishga qaratilgan.

Zamonaviy tadqiqotlarda (N. Volodina, L. Miller, Yu. Koltsova, T. Nikonova) badiiy kontsept va obraz o'rtasidagi bog'liqlik haqidagi samarali g'oya tobora ko'proq eshutilmoqda.

J. Oldrijning "sharq" romanlarida ingliz obrazi va "ingliz" kontseptining ahamiyatini alohida ta'kidlash mumkin. Bu asarlarda "o'ziniki/begona" konseptual qarama-qarshiligi ko'p qirralidir: asarlar arxitektonikasi, ularda G'arb/Sharq makonining yaratilishi, personajlar tizimi sohasida. "O'ziniki/begona" qarama-qarshiligini hisobga olgan holda, J. Oldrij har bir qahramonga "o'ziniki" kontseptini shaxsan aqliy-milliy tushunishini qanday birkirib qo'yganini qayd etish mumkin.

¹⁶ O'sha erda. – P. 46.

¹⁷ Aldridge J. I don't want him to die. – Moscow: Goslitizdat, 1957. – P.44.

